TIJORAT BANKLARIDA AHOLI OMONATLARINI JALB ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Ergashova Feruza Rustam qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabsi
Ilmiy rahbar: Tursunov Faridun Mustafoyevich
SamISI "Bank ishi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda tijorat banklarida aholi omonatlarini jalb etishning iqtisodiy mohiyati, uning bank resurs bazasini shakllantirishdagi o‘rni hamda bank faoliyatidagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, aholi omonatlarini jalb etish mexanizmlari, ularning bank likvidligi va moliyaviy barqarorlikka ta'siri hamda zamonaviy bank tizimida tutgan o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, aholi omonatlari, depozit siyosati, bank resurslari, moliyaviy vositachilik, bank likvidligi, foiz stavkasi, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi.

Tijorat banklari bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy vositachi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Ular iqtisodiyotdagi vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qilib, ularni kredit va investitsiya shaklida real sektorga yo‘naltiradi. Ushbu jarayonda aholi omonatlari bank resurslarining eng muhim va barqaror manbalaridan biri hisoblanadi. Aholi omonatlarini jalb etish banklarning kreditlash salohiyatini oshiradi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Aholi omonatlarini jalb etishning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, u jamiyatdagi pul mablag‘larining muomaladan vaqtincha olib qo‘yilib, bank tizimiga jalb etilishi va samarali qayta taqsimlanishini anglatadi. Bu jarayon iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning optimal taqsimlanishini ta'minlaydi. Aholi o‘z mablag‘larini banklarga joylashtirish orqali nafaqat ularni saqlash, balki foiz ko‘rinishida daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, banklar ushbu mablag‘lardan kreditlash va investitsion faoliyatda foydalanadi

Tijorat banklari faoliyatida aholi omonatlari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular bankning resurs bazasini shakllantiradi. Bank resurslari qanchalik barqaror va diversifikatsiyalashgan bo‘lsa, bankning moliyaviy barqarorligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Aholi omonatlari odatda uzoq muddatli va nisbatan barqaror manba hisoblanib, banklarga likvidlikni boshqarish va kredit portfelini kengaytirish imkonini beradi. Shuningdek, aholi omonatlari banklarning foiz siyosati va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Banklar mijozlarni jalb qilish maqsadida turli xil omonat turlarini (muddatli, jamg‘arma, talab qilib olinguncha) taklif etadi hamda foiz stavkalari orqali raqobatni shakllantiradi. Bu esa bank tizimida xizmatlar sifatining oshishiga va innovatsion yondashuvlarning rivojlanishiga olib keladi.

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida aholi omonatlarini jalb etish jarayonida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Mobil banking, internet banking, onlayn depozit ochish xizmatlari va avtomatlashtirilgan moliyaviy platformalar bank xizmatlaridan foydalanishni sezilarli darajada soddalashtirdi. Bu esa aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirishga va omonatlar hajmining o‘sishiga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, aholi omonatlarini jalb etish tijorat banklari faoliyatining strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u bank resurs bazasini mustahkamlash, likvidlikni ta’minlash va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli banklar aholi omonatlarini jalb qilish bo‘yicha zamonaviy marketing strategiyalarini keng qo‘llashi va raqamli xizmatlarni yanada rivojlantirishi muhim hisoblanadi.